

Qiziriq tumani paxtakorlari ham shartnomaviy rejani bajarishdi



Bugun Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov hududlarda bo'lib, paxta yig'im-terim ishlarining borishi bilan tanishdi hamda ilg'or terimchilar va soha mehnatkashlariga sovg'alar topshirdi.

Dastlab, Sherobod tumani "V.Qodirov" hududidagi "Nazokat ASU" fermer xo'jaligining paxta dalasida ilg'or terimchilar bilan uchrashuv o'tkazilib, ularga sovg'alar topshirildi. Shuningdek, ushbu fermerning 15 gektar maydonida g'alla ekish mavsumiga tayyorgarlik ishlarini ko'zdan kechirib, mas'ullarga vazifalarni belgilab berdi.

Keyingi manzilda viloyat rahbari Qiziriqlik ilg'orlar bilan uchrashuv o'tkazdi. Ularni shartnomaviy rejani bajarganliklari bilan muborakbod etdi. Tuman mirishkorlari, klaster va 14 ta fermer xo'jaligi tomonidan 7 684 gektar maydonda paxta yetishtirilib, 26 663 tonna hosil yig'ishtirib olindi va shartnomaviy reja 101 foizga bajarildi.

Viloyat rahbari faol terimchilar, mexanizator va suvchilar, ilg'or fermer xo'jaliklari hamda klaster rahbarlarini maishiy texnikalar, sovg'alar bilan taqdirladi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)